



QRILISH, UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VA
QRILISH MATERIALLARI SANOATI SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**SANTEXNIK TIZIMLARI VA JIHOZLARI
MONTAJCHILARI**



“Santexnik tizimlari va jihozlari montajchilari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Santexnik tizimlari va jihozlari montajchilari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0036



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Kasbiy standart "Sanitar-texnik tizimlar detallari va uzellarini tayyorlovchi chilangar", "Chilangar-santexnik" hamda "Sanitar-texnik tizimlar va qurilmalar montajchisi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamlı vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5577-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-151-son Farmoni.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo‘llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT 2.1- Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

SHHV - Shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Santexnik tizimlari va jihozlari montajchilari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Suv ta'minoti, kanalizatsiya va sanitar-texnik tizimlar sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning asosiy maqsadi – aholi, ijtimoiy, kommunal va sanoat obyektlarini me'yoriy-texnik talablarga muvofiq ravishda toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va oqova suvlarni xavfsiz, ishonchli, uzluksiz ravishda chiqarilishini ta'minlovchi muhandislik kommunikatsiya tizimlarini loyiha asosida montaj qilish, jihozlash, sinovdan o'tkazish, ishga tushirish, ta'mirlash va foydalanishga tayyor holga keltirishdan iboratdir	
3.	IFUT 2.1 bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	F seksiyasi Qurilish 43 Ixtisoslashtirilgan Qurilish Ishlari 43.2 Elektrotexnik, chilangarlik va boshqa qurilish-montaj ishlari 43.22 Suv bilan ta'minlash, isitish va havoni konditsiyalash tizimlarini montaj qilish 43.22.0 Suv bilan ta'minlash, isitish va havoni konditsiyalash tizimlarini montaj qilish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu kasbiy standart suv ta'minoti, kanalizatsiya va sanitar-texnik tizimlar sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning mehnat faoliyati mazmunini, kasbiy vazifalarini, malaka darajalarini, kerakli bilim va amaliy ko'nikmalarni belgilaydi. Ushbu kasb egalari binolar, inshootlar, aholi va sanoat obyektlaridagi muhandislik kommunikatsiya tizimlarini loyiha-sxemalar asosida to'g'ri montaj qilish, sinovdan o'tkazish, ishga tushirish, ta'mirlash hamda texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshiradilar.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		71265001 Sanitar-texnik tizimlar detallari va uzellarini tayyorlovchi chilangar	3
		71269002 Chilangar-santexnik	3
		71264004 Sanitar-texnik tizimlar va qurilmalar montajchisi	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	71265001 Sanitar- texnik tizimlar detallari va uzellarini tayyorlash bo'yicha chilangar	A1.3	Quvurlar, detallar va uzellarni ishlab chiqishga tayyorlash	A1.01.3	Quvurlarni belgilangan o'lchamda kesish va ishlov berish
				A1.02.3	Quvurlarni egish va shakl berish
				A1.03.3	Fitinglar va bog'lovchi qismlarni tanlash va ishlov berish
		A2.3	Quvur va uzellarni biriktirish, yig'ish va montajga tayyorlash	A2.01.3	Quvur va uzellarni rezbali yoki payvand ulash uchun tayyorlash
				A2.02.3	Quvurlarni yig'ish va uzellarga biriktirish
				A2.03.3	Yig'ilgan uzellarni texnik nazorat va sinovga tayyorlash
		A3.3	Uskunalar va jihozlardan foydalanish hamda ularni sozlash	A3.01.3	Qo'l va mexanik asbob-uskunalardan xavfsiz foydalanish
				A3.02.3	Asbob-uskunalarni tozalash va profilaktika xizmatini o'tkazish
				A3.03.3	Mexanizm va jihozlarni sinovdan o'tkazish va ishlash holatini tekshirish
2	71269002 Chilangar- santexnik	B1.3	Binolarning santexnika va isitish tizimlarini profilaktik ko'rikdan o'tkazish, texnik xizmat ko'rsatish	B1.01.3	Binolarning santexnika va isitish tizimlarini nosozliklarini aniqlash maqsadida profilaktik ko'rikdan o'tkazish
				B1.02.3	Suv ta'minoti tizimlari, shu jumladan yong'in o'chirish suv tizimiga texnik xizmat ko'rsatish
				B1.03.3	Isitish va issiq suv tizimiga texnik xizmat ko'rsatish
				B1.04.3	Oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlariga shu jumladan yomg'ir oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish
		B2.3	Binolarning santexnika va isitish tizimlarini diagnostika qilish, ishonchli va uzluksiz ishlashini ta'minlash	B2.01.3	Binolarning suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini qishki va yozgi mavsumga tayyorlash
				B2.02.3	Binolarning isitish va issiq suv ta'minoti tizimlarini qishki va yozgi mavsumga tayyorlash

		B3.3	Binolarning santexnika va isitish tizimlarini ta'mirlash ishlarini bajarish	B3.01.3	Binolarning suv ta'minoti va yong'in o'chirish suv tizimlarini ta'mirlash
				B3.02.3	Binolarning isitish va issiq suv ta'minoti tizimini ta'mirlash
				B3.03.3	Binolarning oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini ta'mirlash
3	71264004 Sanitar-texnik tizimlar va qurilmalar montajchisi	D1.4	Sanitar-texnik qurilmalarni o'rnatish	D1.01.4	Qurilma o'rnatilish joyini tayyorlash va o'lchash ishlarini bajarish
				D1.02.4	Quvurlarni uzunlikka ko'ra kesish va ulash qismlarini tanlash
				D1.03.4	Sanitar-texnik qurilmani o'rnatish va devor, polga mustahkamlash
		D2.4	Qurilmalarni sinovdan o'tkazish va ishga tushirish	D2.01.4	Oqish va bosim sinovini o'tkazish
				D2.02.4	Sanitar-texnik qurilmaning funksional ishlashini tekshirish
				D2.03.4	Ishlab chiqaruvchi talablari bo'yicha sozlash va ishlashini nazorat qilish
		D3.4	Sanitar-texnik tizimlari va qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish va mayda ta'mirlash	D3.01.4	Sanitar-texnik qurilmalarning profilaktika tekshiruvini o'tkazish
				D3.02.4	Sanitar-texnik qurilmalarning mayda ta'mirlash rezinka, filtrni almashtirishda nazorat.
				D3.03.4	Chiqindi va tiqilmalarni bartaraf etish (prochistka) bo'yicha nazorat

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Sanitar-texnik tizimlar detallari va uzellarini tayyorlash bo'yicha chilangar	
Mashg'ulot nomining kodi	71265	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi;</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor: rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;</p> <p>o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish;</p> <p>belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish;</p> <p>mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;</p> <p>o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish;</p> <p>jamo'a bilan inoq ishlash;</p> <p>o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	1) boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	1) o'rta maxsus ta'lim 2) umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 - Quvurlar, detallar va uzellarni ishlab chiqishga tayyorlash	A1.01.3 – Quvurlarni belgilangan o'lchamda kesish va ishlov berish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Quvurlarni belgilangan chizma yoki hujjatlarga muvofiq ravishda o'lchash va belgilangan o'lchamda belgilash.
		2. Quvurlarni mexanik yoki elektr uskunalari yordamida to'g'ri va aniq kesish.
		3. Kesilgan quvur uchlariga mexanik ishlov berish (yo'simlash, burtik berish, yeniqlash).

		<p>4. Quvurlarning tashqi va ichki yuzalarini chirindidan tozalash va tayyorlashni tekshirish.</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Quvurlarni to'g'ri o'lchash va belgilash (ruletka, chizma bo'yicha).</p> <p>Quvur kesish uchun turli asboblardan (quvur keskich, bolg'a, truborez, grinder) samarali foydalanish.</p> <p>Quvur uchlariga ishlov berish — burtik berish, yuzalari tozalash, teshik ochish.</p> <p>Quvur materialini hisobga olgan holda to'g'ri kesish usulini tanlash (plastik, metall va h.k.).</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Quvurlar turlari va ularning xususiyatlari (plastik, mis, temir, polipropilen va b.).</p> <p>Kesish va ishlov berish jarayonidagi xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi talablari.</p> <p>Chizmalarni o'qish va texnik hujjatlardan foydalanish asoslari.</p> <p>Asbob-uskunalarining tuzilishi va ulardan to'g'ri foydalanish qoidalari.</p>
	<p>A1.02.3- Quvurlarni egish va shakl berish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Quvurni belgilangan burchak yoki shaklga egish uchun chizma yoki texnik hujjat asosida belgilar qo'yish.</p> <p>2. Quvurni qo'l yoki mexanik quvur eguvchi (trubogib) vositasida aniq burchakda egish.</p> <p>3. Egilish jarayonida quvur devorining yorilish yoki ichki qismida tiqilish holatlarini nazorat qilish.</p> <p>4. Tayyorlangan egilgan quvurni shakli va o'lchami bo'yicha chizmaga mosligini tekshirish.</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Quvurlarni to'g'ri va aniq burchakda egish</p> <p>Quvur eguvchi qurilmalardan (qo'lbola yoki mexanik) xavfsiz va samarali foydalanish.</p> <p>Quvurning materialiga qarab egilish usulini to'g'ri tanlash (plastik, metall va h.k.).</p> <p>Egilish paytida ichki cho'kadilar va tashqi tortilmalarni minimallashtirish usullarini qo'llash.</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Quvur egish jarayonidagi materiallar xususiyatlari (masalan, plastikni isitib egish, misni sovuq holda).</p> <p>Quvur burchaklari, radius va deformatsiya masalalari bo'yicha geometriya asoslari.</p> <p>Quvur eguvchi qurilmalarning turlari va ulardan foydalanish tartibi.</p> <p>Egilish jarayonida xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalari.</p>

	A1.03.3- Fitinglar va bog'lovchi qismlarni tanlash va ishlov berish	Mehnat harakatlari:	
		1. Quvur va ulanma turiga mos fittinglarni tanlash (burchak, mufta, troynik va boshqalar).	
		2. Bog'lovchi qismlarni chizma va montaj rejasiga muvofiq to'g'ri joylashtirish.	
		3. Tanlangan fittinglarni tozalash, zarur bo'lsa — ishlov berish (ip ochish, bo'yash yoki ishqalanadigan yuzalarni tayyorlash).	
		4. Bog'lovchi qismlarni quvurga mustahkam va germetik qilib o'rnatish.	
		Ko'nikmalar:	
		Quvur diametri va material turiga qarab mos fittingni aniq tanlash	
		Rezba (ip) yoki payvandlash uchun fittinglarga ishlov berish.	
		Quvur va fitting o'rtasida germetik, to'g'ri ulanishni ta'minlash.	
		Fitinglarni tez va aniq o'rnatish uchun mos asboblardan foydalanish.	
		Bilimlar:	
		Fitinglar turlari va ularning vazifalari (mufta, burchak, adapter, troynik va h.k.).	
		Quvur va fitting o'rtasidagi ulanish standartlari (rezba, payvand, silikon, germetik vositalar).	
		Ulanish nuqtalarida yuza tayyorlash va ishlov berish usullari.	
		Ish paytida xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalari.	
		Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Chizmalar va texnologik hujjatlar asosida ishni to'g'ri va aniq bajarish – Xar bir tayyorlash jarayonida zarur texnik hujjatlarga asoslanish.
			2. Detallar va quvurlarni tayyorlashda sifat va aniqlik uchun javobgarlik – Ishlangan detallar talab darajasida bo'lishi va xato qilinmasligi lozim.
			3. Asbob-uskunalardan to'g'ri va ehtiyotkor foydalanish – Asboblardan samarali va xavfsiz foydalanish orqali uskunalarni ishga yaroqli holda saqlash.
			4. Ish vaqtida mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati – Nosozliklar, ish jarayonidagi o'zgarishlarga tez va mustaqil reaksiya qilish.
5. Tayyorlangan quvurlar va uzellarning sifatini tekshirish va baholashga mas'uliyat – Ish natijalarini shaxsan nazorat qilish va xatolarni bartaraf etish.			

A2.3- Quvur va uzellarni biriktirish, yig'ish va montajga tayyorlash	A2.01.3- Quvur va uzellarni rezkali yoki payvand ulash uchun tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Quvurlarning uchlarini tozalash va ularni rezba ochish yoki payvandlash uchun belgilangan o'lchamda kesish.
		2. Quvur uchlarida rezba ochish (ip tortish) yoki payvandlash yuzasini mexanik ishlov bilan tayyorlash.
		3. Ulanadigan detallarni to'g'ri joylashtirish va teshish uchun belgilangan chizmalarga rioya qilish.
		4. Tayyorlangan qismlarni nazorat qilib, rezba yoki payvand uchun yaroqliligini tekshirish.
		Ko'nikmalar:
		Rezba ochuvchi qurilmalar (plashka, lerka, truborez) va payvand uchun ishlov beruvchi asboblardan foydalanish.
		Quvur va uzellarni texnik talablarga muvofiq tayyorlash.
		Mexanik ishlov berish orqali payvand joyini tayyorlash.
		Quvurni yonma-yon ulash yoki ichma-ich ulash uchun to'g'ri burchak va chiziqni saqlash.
	Bilimlar:	
	Metall va plastik quvur turlari va ularning ulanish usullari (rezkali, payvandli va boshqalar).	
	Rezba standartlari (dyuymli, millimetrlil) va payvandlash normalari.	
	Quvur ulashda ishlatiladigan asbob va uskunalarning tuzilishi va ishlash tartibi.	
	Xavfsiz ishlash qoidalari: ko'zoynak, qo'lqop va qurilma ishlash chegaralariga rioya qilish qoidalari.	
	A2.02.3- Quvurlarni yig'ish va uzellarga biriktirish	Mehnat harakatlari:
		1. Quvurlar va bog'lovchi qismlarni loyiha chizmasi asosida belgilangan joylarga joylashtirish.
		2. Quvurlarni uzellar bilan germetik va mexanik jihatdan mustahkam ulash.
		3. Yig'ilgan quvur tizimini to'g'ri joylashganini va o'lchamlarga mosligini tekshirish.
		4. Quvur va uzellarni yig'ishdan so'ng sinovga tayyor holga keltirish.
Ko'nikmalar:		
Quvur va ulanmalarni to'g'ri burchak, uzunlik va yo'nalish bo'yicha joylashtirish		
Rezkali, payvandli yoki boshqa ulanma usullari orqali germetik biriktirish.		
Yig'ish paytida asbob-uskunalardan xavfsiz va samarali foydalanish.		
Yig'ilgan tizimning sinovga tayyorligini vizual va o'lchov asosida baholash.		

		Bilimlar:
		Quvur tizimlari ulanish usullari (rezbali, payvandli, muftali, flansali va h.k.)
		Sanitar-texnik tizimlar chizmalari
		Germetiklik va mustahkamlik talablari, texnik standartlar.
		Mahkamlash asboblari (kalitlar, truborezlar, lenta, germetik vositalar) va ularning qo'llanishi usullari.
A2.03.3- Yig'ilgan uzellarni texnik nazorat va sinovga tayyorlash		Mehnat harakatlari:
		1. Yig'ilgan uzellarni ko'zdan kechirish, tashqi nuqsonlarni va noto'g'ri ulanishlarni aniqlash.
		2. Barcha ulanmalarning mustahkamligini, germetikligini mexanik usulda tekshirish.
		3. Sinov uchun kerakli asbob-uskunalarni (bosim uskunasi, manometr, klapan va b.) tayyorlash.
		4. Yig'ilgan uzellarni texnik hujjatlar va normativ talablar asosida sinovga tayyorlash va hisobot tuzish.
		Ko'nikmalar:
		Yig'ilgan tizimda nuqsonlar va jipslik kamchiliklarini aniqlash
		Sinov bosimini aniqlash va uni qo'llash uchun asboblardan foydalanish.
		Texnik hujjatlarga muvofiq nazoratni tashkil etish va hisobot yuritish.
		Xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda sinov jarayonini tayyorlash.
		Bilimlar:
		Sinov turlari: gidravlik va pnevmatik sinovlarning o'tkazilishi turlari.
		Quvur tizimi elementlarining texnik holatini baholash me'yorlari.
	Nazorat asboblari (manometr, sig'im o'lchagich, klapanlar) va ularning ishlash prinsiplari.	
	Sinov paytida amalga oshiriladigan xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalari.	
Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Texnik hujjatlarga muvofiq ish yuritish uchun shaxsiy javobgarlik hamda quvur va uzellarni chizma va standart talablar asosida yig'ish
		2. Yig'ilgan tizimning ishonchligi va xavfsizligi uchun shaxsiy nazorat hamda mustahkam, germetik ulanishlar va sinovga tayyorlik uchun to'g'ri baholashni ta'minlash.
		3. Asbob va jihozlardan ehtiyotkor va maqsadli foydalanish hamda asboblarni o'z vaqtida to'g'ri ishlatish va saqlash

		4. Mustaqil qaror qabul qilish, yig'ish yoki birlashtirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni tez va to'g'ri hal qilish.
		5. Ish joyini tashkil etish va tozalikni saqlashda namuna bo'lish, mehnat intizomi va samaradorlikni oshirish
		6. Texnik hujjatlarga muvofiq ish yuritish uchun shaxsiy javobgarlik, quvvur va uzellarni chizma va standart talablar asosida yig'ish
A3.3- Uskunalar va jihozlardan foydalanish hamda ularni sozlash	A3.01.3- Qo'l va mexanik asbob- uskunalardan xavfsiz foydalanish	Mehnat harakatlari:
		1. Ish boshlashdan oldin asbob va uskunalarning holatini tekshirish va xavfsizligiga ishonch hosil qilish.
		2. Qo'l asboblari (yo'simlagich, truborez, kalitlar) ish uslubiga muvofiq va ehtiyotkorlik bilan ishlatish.
		3. Mexanik uskunalar (grinder, drel, quvvur eguvchi va b.) ishlab chiqaruvchi qoidalariga asosan boshqarish.
		4. Ish jarayonida shaxsiy muhofaza vositalaridan (qo'lqop, ko'zoynak, eshituv muhofazalari) doimiy foydalanish.
		Ko'nikmalar:
		Asbob va uskunalar xavfsiz holda to'g'ri ishlatish va nazorat qilish
		Asbobning vazifasiga muvofiq foydalanishni bilish va o'rinsiz ishlatmaslik.
		Mexanik asboblarning qo'llanma va yo'riqnomalariga rioya qilish.
		Ish jarayonida atrofdagilar va o'zining xavfsizligini ta'minlash.
		Bilimlar:
		Qo'l va mexanik asbob-uskunalarning tuzilishi, vazifasi va ishlash tartibi.
	Asboblardan foydalanishdagi texnika xavfsizligi qoidalari.	
	Shaxsiy muhofaza vositalari turlari va ulardan to'g'ri foydalanish usullari.	
	Asboblarni to'g'ri saqlash, tozalash va profilaktikasi (texnik xizmat ko'rsatish)	
A3.02.3- Asbob- uskunalarni tozalash va profilaktika xizmatini o'tkazish	Mehnat harakatlari:	
	1. Ish yakunlanganidan so'ng barcha ishlatilgan asboblarni yog', shag'al va chirindilardan tozalash.	
	2. Asboblarning harakatlanuvchi qismlarini yog'lash va ishlash qobiliyatini tiklash.	
		3. Asboblarda yetishmovchilik, shikast yoki eskirish belgilari bor-yo'qligini ko'zdan kechirish.

		<p>4. Tozalangan va profilaktikadan o'tkazilgan asboblarni belgilangan joyga jamlash va to'g'ri saqlash.</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Asboblarni to'g'ri tarzda tozalash va parvarish qilish</p> <p>Yo'g'on, mayda, harakatli va statik qismlarni tanib, ularga to'g'ri yog'lash ishlarini bajarish.</p> <p>Kichik nosozliklarni (buravchi uchi, qisilib qolish, boshqarish tugmalaridagi nuqsonlar) aniqlash.</p> <p>Asboblarni saqlash va keyingi foydalanish uchun tayyor holda jamlash.</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Asbob va uskunalarning tuzilishi, foydalanish qoidalari va ularga xos tozalash uslublari.</p> <p>Yog'lash, tozalash va profilaktika vositalarining (mashina yog'i, moy, tozalagich, shipka va h.k.) turlari va qo'llanilishi.</p> <p>Asboblarning ishlash muddati va texnik xizmat ko'rsatish intervallari.</p> <p>Asbob saqlash bo'yicha texnik va gigiyenik talablar.</p>
	<p>A3.03.3- Mexanizm va jihozlarni sinovdan o'tkazish va ishlash holatini tekshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mexanizm va jihozlarni montajdan so'ng texnik hujjatlarga muvofiq sinovdan o'tkazish. 2. Ishlash jarayonida ovoz, titrash va boshqa nosozlik belgilariga e'tibor berish. 3. Jihozlarning barcha funksiyalari va qo'shimcha elementlarini tekshirish. 4. Tekshirish natijalarini qayd etish va zarur hollarda mutaxassisga xabar berish. <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Sinovdan o'tkazish usullari va texnik talablarini bajarish.</p> <p>Tekshirish asboblari va uskunalardan to'g'ri foydalanish.</p> <p>Mexanizmning ishlash jarayonini kuzatish va muammolarni aniqlash.</p> <p>Tekshirish natijalarini tahlil qilish va ularni hujjatlash.</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Mexanizm va jihozlar texnik xosiyatlari va ishlash prinsiplari.</p> <p>Sinov turlari (funktsional, bosim, kuchlanish va h.k.) va ularning maqsadlari.</p> <p>Xavfsizlik texnikasi talablari va sinov jarayonidagi xavf-xatarlar.</p> <p>Tekshirish va sinov natijalarini hujjatlash usullari.</p>

	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. Uskunalarni ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalariga muvofiq to'g'ri va xavfsiz foydalanish uchun shaxsiy mas'uliyat – Qurilmalarni buzilmaslik va uning ishlash sifatini ta'minlash uchun javobgarlik.</p> <p>2. Uskunalarni sozlash va ta'mirlash jarayonida mas'uliyat bilan harakat qilish – Sozlashda xatolar keltirib chiqarmaslik va ish samaradorligini saqlash.</p> <p>3. Ish jarayonida texnik xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish – O'zining va atrofdagilar xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ullik.</p> <p>4. Muammolarni o'z vaqtida aniqlash va zarur hollarda mutaxassislarga xabar berish – Mustaqil muammoni hal etishga harakat qilish va kerak bo'lsa yordam so'rash.</p> <p>5. Uskunalarni saqlash, tozalash va profilaktika ishlarini o'z vaqtida bajarishda faollik ko'rsatish – Qurilmalarning ishlash muddatini uzaytirish uchun mas'ullik.</p>
<p>Texnik va/yoki texnologik talab</p>		<p>Yo'simlagich (truborez) — quvurlarni kesish uchun; Kalitlar (gayechный, to'g'ri va burchakli); Burmash va burg'ilash uchun asboblari; Quvurlarni burish uchun maxsus kalitlar va boshqalar. Elektrli drel va burg'ilash mashinasi; Grinder (o'tkirlash va kesish uchun); Payvand qurilmalari (elektr payvandchi, gaz payvandchi); Quvurlarni egish uchun maxsus stanok yoki qurilma; Metr, ruletka va boshqa o'lchov asboblari. Bosim o'lchovchi manometrlar.</p>

Kasbning nomi:	Chilangar-santexnik	
Mashg'ulot nomining kodi:	71269	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi;</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor: rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;</p> <p>o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish;</p> <p>belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish;</p> <p>mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;</p> <p>o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish;</p> <p>jamoalar bilan inoq ishlash;</p> <p>o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p> <p>Ishlab chiqarish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlikning mavjud emasligi.</p> <p>Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish qoidalariga rioya qilish.</p> <p>Balandlikda ishlar olib borilgan taqdirda balandlikda ishlashga ruxsatning mavjudligi.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	1) o'rta maxsus ta'lim 2) umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqasi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Santexnika va isitish tizimlaridagi nosozliklarni aniqlash maqsadida profilaktik ko'rikdan o'tkazish zarur	

<p>B1.3- Binolarning santexnika va isitish tizimlarini profilaktik ko'rikdan o'tkazish, texnik xizmat ko'rsatish</p>	<p>B1.01.3- Binolarning santexnika va isitish tizimlarini nosozliklarini aniqlash maqsadida profilaktik ko'rikdan o'tkazish</p>	<p>materiallar, ish qurollarini topshiriqqa muvofiq tanlash tekshirish.</p>
		<p>2. Berkritilgan uchastkada santexnika va isitish tizimlaridagi nosozliklarni aniqlash maqsadida profilaktik ko'rikdan o'tkazishda quvur va armaturalardagi suv sizishlarini aniqlash.</p>
		<p>3. Santexnika va isitish tizimlaridagi nosozliklarni aniqlash maqsadida profilaktik ko'rikdan o'tkazishda jihozlar va priborlarni nosozliklarini bartaraf etish imkoniyatlarini baholash.</p>
		<p>4. Maxsus ishchi kiyimni kiyish, tugmalarni to'liq qadash, qo'lqopni kiyish, bosh kiyimini kiyish, himoya ko'zoynagi va respiratorni tayyorlash.</p>
		<p>5. Ish joyini yoritilganligini tekshirish va me'yorda ekanligiga ishonch hosil qilish.</p>
		<p>6. Ish qurollarida nosozliklar aniqlanganda ish boshqaruvchiga xabar berish va soz ish quroli bilan ishni boshlash.</p>
		<p>7. Xavfsizlik texnikasi yo'riqnomasidan o'tish jurnaliga imzo qo'yib tasdiqlash.</p>
		<p>Ko'nikmalar:</p>
		<p>Smena topshirig'ini bajarish uchun ish qurollari va materiallarni tanlash.</p>
		<p>Ish turi va murakkabligidan kelib chiqib dastaki va mexanizatsiyalashgan ish qurollarini tanlash.</p>
		<p>Quvurlar va fittinglar, shaklli qismlar, armaturalar, mahkamlash vositalari, moylash va boshqa materiallar sifatini aniqlash.</p>
		<p>Quvurlar va armaturalarda suv sizishini aniqlash.</p>
		<p>Jihozlar va priborlarning nosozliklarini aniqlash.</p>
		<p>Sanitar-texnik tizimlari va armaturalardagi nosozliklarni bartaraf etish.</p>
		<p>Sanitar-texnik va isitish tizimlaridan samarali va tejamli foydalanish bo'yicha iste'molchilar bilan yo'riqnoma o'tkazish.</p>
		<p>Sanitar-texnik va isitish tizimlarini diagnostika qilishning zamonaviy usullarini qo'llash.</p>
		<p>Ish qurollarini tayyorlash va sozligini aniqlash.</p>
		<p>Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini tayyorlash.</p>
		<p>Bilimlar:</p>
		<p>Binolarning sanitar-texnik tizimlari va isitish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish texnologiyasi, qo'llaniladigan texnikalar va jihozlar.</p>
<p>Binolarning sanitar-texnik tizimlari va isitish tizimlarining chizmalari, aksonometriya tasviri</p>		
<p>Binolarning sanitar-texnik tizimlari va isitish tizimlarining tuzilishi</p>		

		Binolarning sanitar-texnik tizimlari va isitish tizimlarini diagnostika qilish qurilmalari va jihozlari.
		Binolarning sanitar-texnik tizimlari va isitish tizimlaridan foydalanishda iste'molchilar bilan ishlash tartibi
		Texnika xavfsizligi mehnat muhofazasi yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar talablari.
B1.02.3- Suv ta'minoti tizimlari, shu jumladan yong'in o'chirish suv tizimiga texnik xizmat ko'rsatish		Mehnat harakatlari:
		1. Shaxsiy himoya vositalarini tanlash va sozligini tekshirish.
		2. Topshiriqqa muvofiq materiallar va ish qurollarini tanlash va qabul qilish.
		3. Suv ta'minoti tizimidagi quvurlar va armaturalardan suv sizishlari bartaraf etish.
		4. Yong'in o'chirish suv ta'minoti tizimida quvurlar va armaturalardan suv sizishini bartaraf etish.
		5. Suv ta'minoti tizimlaridagi quvurlar, jihozlar va priborlarni mahkamlash qismlarini qayta tiklash.
		6. Yong'in o'chirish suv ta'minoti tizimida quvurlar armaturalar va priborlarni mahkamlash qismini qayta tiklash.
		7. Suv nasoslariga texnik xizmat ko'rsatish mehnat muhofazasi talablariga javob berishi.
		Ko'nikmalar:
		Shaxsiy himoya vositalarining sozligini aniqlash.
		Ish turiga muvofiq va ish qurolining vazifasiga muvofiq dastaki va mexanizatsiyalashgan ish qurollarini tanlash.
		Binolarning suv ta'minoti tizimlariga texnik xizmat va ta'mirlash.
		Yong'in o'chirish tizimi nasoslari va bosimni oshirish nasoslariga texnik xizmat ko'rsatish.
		Binolarning suv ta'minoti tizimlarida qo'llaniladigan quvurlar, fittinglar, shaklli qismlar, armaturalar, mahkamlash vositalari, moylash va boshqa materiallar sifatini aniqlash.
		Binolarning suv ta'minoti, yong'in o'chirish suv ta'minoti tizimlarining asosiy va yordamchi jihozlarining holatini baholash
		Bilimlar:
		Binolarning sanitar-texnik tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi.
		Binolarning sanitar-texnik tizimlarining turlari va vazifalari.
	Binolarning sanitar-texnik tizimlarida qo'llaniladigan quvurlar, armaturalar va boshqa jihozlar.	
	Binolarning sanitar-texnik tizimlari chizma va sxemalarini o'qish, materiallar spetsifikatsiyasini tuzish tartiblari	
	Bosimni oshirish va yong'in o'chirish nasoslari, turlari va vazifalari.	

		Binolarning sanitar-texnik tizimlariga texnik xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan ish qurollari va mexanizmlari.
		Mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish talablari.
B1.03.3- Isitish va issiq suv tizimiga texnik xizmat ko'rsatish		Yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar
		Mehnat harakatlari:
		1. Shaxsiy himoya vositalarini tanlash va sozligini tekshirish.
		2. Materiallar va ish qurollarini tanlash va tekshirish.
		3. Isitish va issiq suv tizimi quvurlaridagi, suv isitkichlar va asboblardagi suv sizishlarini bartaraf etish.
		4. Isitish asboblari va quvurlardagi mahalliy (qisman qizimayotgan joylarni) nosozliklarini bartaraf etish.
		5. Issiq suv va isitish tizimidagi asboblar va jihozlarni mahkamlash joylarini tiklash.
		6. Aylantiruvchi (sirkulyasiya) nasoslariga texnik xizmat ko'rsatish.
		7. Mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Texnologik jarayonga muvofiq ish qurollarini tanlash.
		Ish turi va vazifasiga qarab dastaki va mexanizatsiyalashgan ish qurollarini qo'llash.
		Binolarning sanitar-texnik tizimlari chizmalari va eskizlarini o'qish, sarflanadigan materiallar spesifikatsiyasini tuzish.
		Binolarning isitish va issiq suv ta'minti tizimlariga texnik xizmat ko'rsatishda tegishli texnologiyalar va usullarni qo'llash.
		Aylantirish (sirkulyasiya) nasoslariga texnik xizmat ko'rsatish.
		Quvurlar, fittinglar, shaklli qismlar, armaturalar, mahkamlash vositalari va boshqa materiallar sifatiga baho berish.
		Mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi yong'in xavfsizligi talablari bo'yicha yo'riqnomalar
		Bilimlar:
		Binolarning isitish tizimlari, turlari va vazifasi.
		Binolarning issiq suv tizimlari, turlari va vazifasi.
	Suv isitkichlari, turlari va ishlatish tamoyillari.	
	Isitish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi	
	Issiq suv tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi	
	Issiq suv tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish texnologiyasi	
	Aylantirish (sirkulyasiya) nasoslarining vazifasi va turlari.	
	Aylantirish (sirkulyasiya) nasoslariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi.	

		Dastaki va mexanizatsiyalashgan ish quollarining vazifasi, turlari va ishlatish tartibi.
		Binolarning isitish tizimlari va issiq suv tizimlariga texnik xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan dastaki va mexanizatsiyalashgan ish quollari
		Shaxsiy himoya vositalari va ulardan foydalanish talablari.
	B1.04.3- Oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlariga shu jumladan yomg'ir oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish	<p>Mehnat harakatlari</p> <p>1. Shaxsiy himoya vositalarini tanlash va sozligini tekshirish.</p> <p>2. Berilgan topshiriqqa muvofiq ish quollari va materiallarni tanlash.</p> <p>3. Sanitar-texnik asboblari va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlari quvurlaridagi tiqilishlarni bartaraf etish</p> <p>4. Quvurlarni sanitar-texnik jihozlariga ulash va quvurlarni ulash joylaridagi sizishlarni bartaraf etish</p> <p>5. Yomg'ir oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlari quvurlari va jihozlaridagi qo'zg'algan joylarni qayta mahkamlash.</p> <p>6. Yomg'ir oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlaridagi jihozlar va quvurlardagi axlatlar, loy va barglarni tozalash</p> <p>7. Ish jarayonida baxtsiz hodisalar sodir bo'lganda birinchi yordam berish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Shaxsiy himoya vositalarini tanlash va sozligini tekshirish.</p> <p>Amalga oshiriladigan texnologik jarayoniga muvofiq ish quollarini tanlash.</p> <p>Amalga oshiriladigan ishlar va belgilangan vazifaga muvofiq dastaki va mexanizatsiyalashgan ish quollarini tanlash.</p> <p>Binolarning oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlariga shu jumladan yomg'ir oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlari chizmalari, sxemalari va materiallar spetsifikatsiyasini tuzish</p> <p>Quvurlardagi sizishlar va tiqinlarni aniqlash.</p> <p>Oqova suvlar tik quvurlari, (stoyaklari), gidravlik qopqoqlar va tiqinlarni tozalash ishlarini bajarish.</p> <p>Plastik quvurlarni ulash, cho'yan quvurlarni rastrub usulida chekanka qilib ulash ishlarini bajarish.</p> <p>Quvurlar va sanitar-texnik asboblarini mahkamlash.</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish va evakuatsiya qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Binolarning oqova suv tizimlari vazifasi tuzilishi va turlari.</p> <p>Binolarning yomg'ir oqova suvlar tizimlari vazifasi, tuzilishi va turlari.</p>

		Binolarning oqova suvlar tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi.
		Binolarning yomg'ir oqova suvlar tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi.
		Binolarning oqova suvlar tizimlari chizma va sxemalarini o'qish, zarur materiallar ro'yxatini tuzish tartibi.
		Binolarning yomg'ir oqova suvlar tizimlari chizma va sxemalarini o'qish zarur materiallar ro'yxatini tuzish tartibi.
		Binolarning oqova suvlar tizimlariga texnik xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan ish qurollari va mexanizmlar.
		Binolarning yomg'ir oqova suvlar tizimlaridagi sizishlar va tiqinlarni bartaraf etish texnologiyasi.
		Suv resurslarini tejash, unumli foydalanish asoslari.
		Oqova suvlardan aylanma va qayta foydalanish usullari.
		Ish jarayonida baxtsiz hodisalar sodir bo'lganda birinchi yordam usullarini.
		Mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi yong'in xavfsizligi talablari
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ish sifati uchun shaxsiy javobgarlik	
	2. O'rnatilgan qurilmaning to'g'ri ishlashi, xavfsizligi va uzoq muddatligi uchun javob berish	
	3. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish	
	4. O'zining va atrofdagilarning xavfsizligi uchun mas'ul bo'lish va ehtiyot choralarini ko'rish	
	5. Nosozlik va muammolarni o'z vaqtida aniqlab, yechim taklif qilish	
	6. Qurilma o'rnatish paytida yuzaga kelgan texnik muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlik	
B2.3- Binolarning santexnika va isitish tizimlarini diagnostika qilish, ishonchli va uzluksiz ishlashini ta'minlash	B2.01.3- Binolarning suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini qishki va yozgi mavsumga tayyorlash	Mehnat harakatlari
		1. Binolarning suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini mavsumga tayyorlash texnik topshirig'ini olish.
		2. Binolarning suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini mavsumga tayyorlash uchun zarur bo'ladigan ish qurollari, materiallar va ehtiyot qismlarni tayyorlash.
		3. Shaxsiy himoya vositalarini tanlash va sozligini tekshirish.
		4. Tashqi sug'orish tizimini konservatsiya va rekonservatsiya qilish.
		5. Ichki yong'in o'chirish ta'minoti tizimi va suv ta'minoti tizimini berkitish armaturasini tekshirish.
		6. Yong'in o'chirish va bosimni oshirish nasoslaridagi nosozliklarni bartaraf etish.
		7. Suv ta'minoti hamda yong'in o'chirish tizimi quvurlari va jihozlarini mahkamlash qismlarini qayta tiklash.

		Ko'nikmalar:
